



Expression of the Uzbek national character through phraseological units

Yusuf KHODJIEV¹

Gulistan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 May 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

national character,
Uzbek phraseology,
family values,
linguistic and cultural
studies,
love for children,
gender roles,
phraseological semantics.

ABSTRACT

This article analyzes how the core values of Uzbek national character are expressed through phraseological units. It explores how family devotion, love for children, patience, gender roles, and social relationships of the Uzbek people are reflected in the language through idioms. The study focuses on the lexical-semantic analysis of idioms expressing such values as family unity, devotion, hard work, modesty, forgiveness, and patience. Special attention is given to idioms like "bir boshi ikki bo'ldi," "qo'sha qarimoq," "ko'z ochib ko'rgan," "bir etak bola," "jonini bermiq," "fotiha bermiq," and "javobini bermiq," which represent unique Uzbek cultural views on marriage and family. The article also highlights the gender aspects of idioms, especially those representing typical qualities of Uzbek women such as patience, modesty, and selflessness.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp208-215>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbek milliy xarakterining frazemalar orqali ifodalanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

milliy xarakter,
o'zbek frazeologizmi,
oilal qadriyatlarl,
lingvomadaniyatshunoslik,
bolajonlik,
erkak va ayol roli,
iboralar semantikasi.

Ushbu maqolada o'zbek milliy xarakteridagi asosiy qadriyatlar frazeologik birliklar orqali qanday ifodalanishi tahlil qilingan. Maqolada o'zbek xalqining oilaparvarlik, bolajonlik, sabr-toqat, erkaklar va ayollar rollari, jamiyatdagi munosabatlarga doir milliy xususiyatlari tildagi frazemalar orqali namoyon bo'lishi ko'rsatilgan. Oilaparvarlik, fidoyilik, sabr-toqat, mehnatkashlik, andisha, kechirimlilik kabi xususiyatlarni ifoda etuvchi frazemalar leksik-semantik tahlil qilingan. Ayniqsa, bir boshi ikki bo'ldi, qo'sha qarimoq, ko'z ochib ko'rgan, bir etak bola, jonini bermiq, fotiha bermiq, javobini bermiq kabi frazemalar orqali o'zbek xalqi oilaga

¹ PhD, Gulistan State University, Syrdarya, Uzbekistan.

munosabatining o'ziga xosligi ochib berilgan. Maqolada frazeologik birliklardagi gender xususiyatlar, ayniqsa, o'zbek ayollariga xos sabrlik, andishilik, fidoyilik kabi xususiyatlarning frazemalarda ifodalanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Выражение узбекского национального характера через фразеологизмы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

национальный характер, узбекская фразеология, семейные ценности, лингвокультурология, любовь к детям, гендерные роли, семантика фразеологизмов.

В статье анализируется, как выражаются ключевые ценности узбекского национального характера через фразеологические единицы. Автор рассматривает особенности отношения узбекского народа к семье, детям, терпению, мужским и женским ролям, а также к общественным отношениям, которые отражаются в языке через фразеологизмы. Исследуются фразеологизмы, выражающие семейные ценности, преданность, трудолюбие, терпимость, прощение и скромность. Особое внимание уделено фразеологизмам «бир боши икки бўлди», «қўша қаримоқ», «қўз очиб кўрган», «бир etak bola», «jonini bermoq», «fotiha bermoq», «javobini bermoq». В статье подробно рассматриваются гендерные особенности фразеологических единиц, отражающих качества, присущие узбекским женщинам, такие как терпеливость, скромность и самоотверженность.

SUMMARY

This study investigates the reflection of Uzbek national character through phraseological units. It highlights the ways in which traditional family values, intergenerational relationships, and gender-specific roles are expressed in the Uzbek language. The article analyzes idioms related to family, marriage, patience, generosity, and moral qualities from a linguistic and cultural perspective. Idioms such as "bir boshi ikki bo'ldi" (to get married), "qo'sha qarimoq" (to grow old together), "ko'z ochib ko'rgan" (first spouse), "bir etak bola" (having many children), "jonini bermoq" (to sacrifice oneself), "fotiha bermoq" (to give a blessing), and "javobini bermoq" (to divorce) are explored in detail. The research also addresses gender-specific expressions, focusing on qualities attributed to Uzbek women, including patience, modesty, and diligence. The study emphasizes that these idioms serve as linguistic markers of Uzbek national identity and cultural heritage.

KIRISH

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan Milliy xarakterni xalqning madaniyatida shakllangan qadriyatlar, ularning tildagi semantik va lingvokognitiv modeli sifatida ta'riflash mumkin. Milliy xarakter uzoq vaqt davomida shakllanib, ma'lum bir millatning deyarli butun tarixini qamrab oladi. Xalqning o'ziga xos xarakter xususiyatlari uning an'analari, madaniyati, ijtimoiy qadriyatlari, tashqi, tabiiy muhitiga qarab

shakllanadi. O'z navbatida, uni o'rganishning qulay va universal vositasi bu milliy tildir. Taniqli tilshunos V.Maslova milliy xarakterni qanday tadqiq etish mumkin? -degan savolni qo'yadi hamda unga "birinchi navbatda, milliy til orqali"-degan javobni beradi. "Inson o'zining jismoniy qiyofasini, ichki holatini, his-tuyg'ulari va aql-idrokini, xatti-harakatlari va xarakterini tilda muhrlab qo'ygan" [1, 37].

Milliy xarakter xususiyatlari, millatning stereotiplari va madaniy me'yorlarini aks ettiruvchi lisoniy birliklar sirasida frazemalar alohida o'rin tutadi. Ular shakllanishi uzoq davrni talab qiladigan, individuallik xos bo'lmagan xalqning qadim madaniyatidan darak beruvchi birliklar sanaladi. Frazemalarga berilgan turli-tuman ta'riflar orasida eng umume'tirof etilgan xususiyat: frazemalar ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalardir. "Frazeologik birliklar xalqning madaniyati, tasavvuri, odatlari, qadimiy an'analari, obrazli tafakkuri va o'ziga xos xulq-atvori bilan bog'langanligi sababli tilning eng ko'p madaniy ma'lumotlar tashuvchisi hisoblanadi. FBlarda xalq donishmandligi, etnosning qadriyatlar olami manzarasi muhrlanib qolmasdan, predmetlarning zohiriy tartibi hamda inson botiniy olami haqidagi faol va passiv bilimlar yig'indisi aforistik shaklda ifodalanadi. Frazeologik birliklarning tabiati ularni antroposentrik paradigma doirasida tadqiq qilishni taqozo qiladi" [2, 36].

ADABIYOTLAR TAHLILI

A. Mamatov "Zamonaviy tilshunoslik" nomli monografiyasida frazeologik birliklarning milliy-madaniy semantikasini quyidagi uch qismga ajratadi:

1. Frazeologizmlar milliy madaniyatni yaxlit, kompleks tarzida o'zining idiomatik ma'nosi bilan aks ettiradi. Rus tilida "mazali" ma'nosini "пальчики оближешь" frazemasini, o'zbek tilida esa *og'zidan so'lagi oqadi* frazemasini aks ettiradi.

2. Frazeologizmlar milliy madaniyatni o'z tarkibidagi mavjud komponentlari, ya'ni so'zlar yordamida ochib beradi. Bu so'zlarning ayrimlari ekvivalentsiz so'zlarga to'g'ri keladi.

3. Frazeologizmlar milliy madaniyatni o'z prototiplari bilan aks ettiradilar. Frazeologik birikmaga aylanib qolgan erkin birikmalar ma'lum bir urf-odatlarini, an'analarni, turmush va madaniyatning tafsilotlarini, tarixiy voqealarni va boshqa ko'plab narsa-hodisalarni tasvirlagan [3, 138-139].

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari chog'ishtirma aspektida tadqiq qilingan [4; 5; 6; 7; 8]. Masalan, G.S. Qurbonovning "Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari", A.A. Nasirovning "Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari", M.A. Radjabovning "Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolari (ingliz, o'zbek va rus tillari materialida)" nomli dissertatsiyalari shular jumlasidandir [10; 11; 12].

O'zbek milliy xakteri aks etuvchi frazemalarning tadqiqiga bag'ishlangan maxsus monografik tadqiqot mavjud emas. Ammo muayyan tadqiqotning tarkibida yoki ilmiy maqola shaklidagi tahlillar mavjud. Masalan, P.Nishonov, M.Primovalarning "Fransuz va o'zbek tillarida xarakter ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili" nomli maqolasida asosiy e'tibor frazemalarning struktur tuzilishiga qaratiladi va asosan fransuz iboralari tahlil qilinadi. O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning tahliliga alohida e'tibor qaratilmagan [13, 76-91].

F. Abduljalilovning "Frazeologik birliklarda milliy-madaniyatning aks etishi" nomli maqolasida esa "non" konseptini ifodalovchi *non yemoq, noni butun, noni yarimta boldi, non ursin* kabi frazemalar tahlil qilingan. Yana sog'lik-kasallik va boylik va

kambag'allik kabi aksiologik juftliklarni ifodalovchi frzeologik birliklar tahlil qilingan. Masalan kasallikni ifodalovchi frazemlar xususida quyidagicha fikr bildirilgan: "Antiqadriyat hisoblangan kasallikka ham turli munosabatlar bildirilgan. Masalan, kasallik qilingan gunohlar, Allohning sinovlari, kimningdir nazari, yomon odamlarning turli sehlari, noto'g'ri ovqatlanish, makon va zamon (fasllar) bilan sharhlangan. Xalqimizning bu ikki tushunchaga bo'lgan qarashlari, albatta, frazemalarda ham o'z aksini topgan. Kasallik so'ziga antisemik munosabatdagi frazemalar: *tutday g'arq pishmoq, barq urmoq, barq urib ko'karmoq, bahri-dili ochilmoq, omon-eson bo'lmoq, yostiqlan bosh ko'tarmoq. Tutday to'kilmoq, boshi yostiqa. etganda, mazasi qochmoq, ko'z oldi qorong'ilashmoq, badanidan o'tib ketmoq* kabi frazemalar sog'lik leksemasi bilan antisemiya munosabatini hosil qiladi.

Milliy xarakterni ifodalovchi frazemalarning ilmiy tahlili M. Rahimova va F. Muhammadqodirovalarning "O'zbek tilida milliy xarakter bilan bog'liq iboralarning lingvokulturologik tadqiqi" nomli maqolasida ko'zga tashlanadi. Ushbu maqola uncha katta hajmli bo'lmay, unda o'n ikkita frazemaning milliy xarakterni o'zida aks ettirishi yoritilgan. U o'zbek tilshunosligidagi milliy xarakterni frazemalar tahlili amalga oshirilgan ilmiy maqola ekanligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, bahri dilini ochmoq farzemasi quyidagicha tahlil qilingan: "Bu iborada ham o'zbek xalqining so'zni qo'llash mahorati naqadar kuchli ekanini ko'rishimiz mumkin. Insonlar birovga yaxshilik qilsa yoki shu yaxshilik o'ziga qaytib kelsa, biror xushmanzara joyni ko'rsa kayfiyati ko'tariladi va shu lahzada *bahri dilim ochildi* degan iborani ishlatadi" [14, 413-415].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'zbek milliy qadriyatlaridan biri oila, milliy xakteri tashkil etuvchi xususiyatlardan biri esa oilaparvarlikdir. Har bir millat oila quradi va oilani aziz deb biladi. Lekin oilaviy munosabatlar millatlararo bir-biridan farq qiladi. O'zbek millatida an'anaviy oilasi bobo-buvi, ota-ona, farzandlar va nabiralardan iborat bo'lib, bir nechta avlod vakillaridan tashkil topadi. Har bir oilada avlodlararo iqtisodiy va ma'naviy bog'liqlikning mustahkamligi oilaning asosiy tayanchi sanaladi. Katta avlod vakillari o'z hayotiy tajribalari orqali yoshlarga tarbiya beradilar, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qadriyat, urf-odat va an'analarni meros qilib qoldiradi. Imkoni boricha katta avlod vakillari kichiklarni moddiy tomondan ham qo'llab-quvvatlaydi. Kichik avlod vakillari o'z navbatida katta avlod vakillarini doim qadrlaydi, hurmat qiladi, umrining oxirigacha xizmatini qiladi. An'anaviy o'zbek oilalarida erkaklar oilaning tayanchi, iqtisodiy jihatdan ta'minlovchisi, muhim qarorlarni qabul qiluvchisi sanaladi. Odatda ko'chmanchi turkiy qabilalarda erkaklar oila uchun mas'ul bo'lgan va Islom dinining oila muqaddasligi xususidagi qarashlar natijasida o'zbek milliy mentalitetida oilaparvarlik tushunchasi shakllangan.

Mazkur oilaparvarlik xususiyati milliy xakterning bir bo'lagi bo'lib, frazemalar orqali ham anglashiladi. *Bosh(i) ikki [ta] bo'ldi, bir boshi ikki bo'lmoq* kabi frazemalarda oila qurishdagi milliy qarashlar aks etadi. Zero, an'anaviy o'zbek oilalarida oila muqaddas sanalgan, nikoh abadiy hisoblangan. Ya'ni, uylanish bu ikkita boshli bo'lishdir. Inson hech qachon boshidan voz kechmaydi. Demak, oila o'zbek millatida hoyu-xavasga qurilmaydi, u shu naslni davom ettiruvchi bir bo'g'in bo'lib, undan voz kechish "boshdan" – o'zlikdan kechishdir.

"Bosh" komponentli frazemalar ayollarga ham xos bo'lib, *boshi ochiq, boshi bog'liq, boshini bog'lamoq* kabi frazemalarda oilali bo'lgan ayolning endi boshida himoyachisi bor, uni qo'riqchisi bor kabi ko'chma ma'no anglashiladi.

Demak, o'zbek milliy xarakterida oilani imkon qadar bir marta qurish, birinchi nikoh bilan oxirigacha yashash tendensiyasi kuchlidir. Oila erkak va ayol uchun bir umrlik qaror, katta mas'uliyat ekani *qo'sha qarimoq* frazemasida yaqqol aks etadi. *Qo'sha qarimoq* frazemasini "umrning oxirigacha birgalikda uzoq yashamoq" ma'nosini anglatib, ijobiy semantikali birlik sanaladi. Bu frazema yaxshi niyatlar bilan tilaklar bildirilganda qo'llanadi. Masalan, Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asarida:

"Yangi bo'lmish og'ayni-jamoa qoshiga bordi. Oymomo sukutini aytdi.

Sovchilar dasturxonga o'ralmish nonni o'rta qo'ydi.

Qalin aytish boshlandi.

– Xo'-o'sh...

– Elga qarab ayting-da.

– Xo'-o'p... – Bo'ldi-ye, hech kim qiz uzatib boyigan emas.

– O'nta qo'y... shularga rozimisizlar?

– Qani, ilohi omin, ikki yosh qo'sha qarisin, Olloh-akbar!

Yangasi qiz onasi o'rnida fotiha o'qidi.

Non sindirildi.

Sovchilar ohorli belqars o'rab ketdi". (Tog'ay Murod)

Yuqoridagi kabi mazmunni *ko'z ochib ko'rgan* frazemasida ham aks etadi. O'zbeklar shaxsiy tuyg'ularidan oiladagi farzandlar kamolini, ularning ota-ona bilan yashashi kerakligini ustun qo'yadilar. Shu bois birinchi (yagona) nikoh xalqda qadrlanadi. Mana shu xususiyat esa Y.Odilov mazkur frazemaning enantiosemetik xususiyatini tahlil qilar ekan, mazkur frazema nikoh kunidagi "oyina ko'rsatar" marosimi motivi asosida shakllanganligini aytadi: **"Ko'z ochib ko'rgan"**. Bu birgina ibora "xotinga nisbatan birinchi er" va "erga nisbatan birinchi xotin" ma'nolarini bildiradi. Masalan, "U kishi... bolalarimning otasi... **ko'z ochib ko'rganim** (Tohir Malik, Murdalar gapirmaydilar)" jumlasida "er" ma'nosida qo'llangan. Xuddi shu ibora quyidagi gapda "xotin" ma'nosida kelgan: *Ag'darilib yotgan simyog'ochlar, pachoqlangan yengil mashinalar oralab yugurib borayotgan Shavkat tinmay pichirlardi: – Botirjon, bolam!.. Surayyo, jonim!.. **Ko'z ochib ko'rganim!*** (Sharof Boshbekov, Falakning gardishi)... To'ydan keyin kelin-kuyovni qo'shib qo'yish oldidan o'tkaziladigan "Oyna ko'rsatar" marosimi, bu marosimda kelin-kuyovning oynaga qarab: "Osmondagi oyni ko'rdim, ko'zimni ochib sizni ko'rdim" deyishi va bu bilan biri ikkinchisini ilk erkak, ilk ayol sifatida tan olishi *ko'z ochib ko'rgan* iborasida "xotinga nisbatan birinchi er" va "erga nisbatan birinchi xotin" ma'nolarining yuzaga kelish motivlaridir" [15].

O'zbek xalqining bolajonlik xarakterga egaligi ma'lum. *Bir etak bola* frazemasini esa mana shu xususiyatni o'zida aks ettiradi: *"Jahlim chiqib, shundoq kofirligim tutuvdi-ku... Bu sho'rtumshuqning ko'z yoshini ko'rib, yuragim o'lgur tag'in ezilib ketdi. Har balo bo'lsayam, hovli sotilmasin. Bir etak bola-ya!" (H. Sultonov).*

An'anaviy o'zbek oilalarida bolalar soni ko'p bo'lishi ma'lum. Oiladagi bolalar sonining miqdori esa "bir etak" bilan o'lchanmoqda. Har bir millatning o'ziga xos o'lchov birliklari bo'lib, o'zbek xalqida "bir" kopponentli *bir shingil, bir hovuch, bir etak, bir qarich* kabi o'lchovlar bor. Ushbular agar to'g'ri ma'noda qo'llansa, frazema bo'la olmaydi: *bir etak paxta, bir shingil uzum, bir hovuch tuproq, bir qarich mato*. Lekin ko'chma ma'noda qo'llanganda esa frazeologik birlik sifatida talqin qilinadi: *bir etak bola*.

"Bermoq" kopponentli *fotiha bermoq, jonini bermoq, jonini jabborga bermoq, erga bermoq, javobini bermoq* kabi frazemlarda ham millat xarakteriga xos xususiyatlar aks etadi. O'zbek mentalitetida oila qurishda kattalarning, xususan, ota-onaning duosi,

fotihasi, roziligini olish muhimdir. Farzandlarning to'yini qilish, o'ziga munosib inson bilan turmush qurishini ta'minlash an'anaviy o'zbek oilasida ota-onaning vazifasi sanaladi. Odatda, ota-onalar aralashuvi bilan turmush o'rtoq tanlanadi yoki tanlangan nomzod uchun ota-ona roziligi olinadi. Ularning roziligi, duosi bilan oila qurish har bir o'zbek farzandning asosiy burchidir. Mana shunday milliy xususiyatlar *fotiha bermoq, oq fotiha* kabi frazemalarda namoyon bo'ladi.

Jonini bermoq, jonini jabborga bermoq frazemalari bir qancha fodiylilik talab qilingan holatlar uchun qo'llanadi. Shunday qo'llashlardan biri ayolning farzandi uchun qilgan fidoyiligidir. O'zbek ayolining tabiatida oilasi uchun fidokorlik birlamchi ahamiyat kasb etadi. U o'zining barcha orzu-umidlarini, baxtini oilasi farzandlari bilan bog'laydi.

Erga bermoq frazemasida oilada erkak kishining ustuvorligi, ayoliga mas'ulligi xotinning unga berilishi kabi motivlarga asos bo'lgan. Bunday xususiyat turkiy ajdodlardagi patriarxat tuzum va Islom dinidagi ayolning erga omonatligi asnosida shakllangan: *"Hasanali palovg'a urnash uchun tashqariga chiqdi. Otabek mehmonlarga choy quyib uzatdi. Homidning haligi so'zidan keyin oradag'i bahs kesilgan edi. Uchovlari ham bir narsaning xayolini surgandek ko'rinar edilar. Bir necha vaqt shu holda qolishib Rahmat tog'asidan so'radi:*

– *Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi?*

Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi va tilar-tilamas javob berdi:

– *Bundan xabarim bo'lmadi. Gumonimcha, bermagandir". (A. Qodiriy).*

Oilaning buzilishidagi qaror, ajrimlar ham erkak kishining zimmasida ekanligi *javobini bermoq, patta(si)ni qo'l(i)ga bermoq* frazemalarida namoyon bo'ladi. Lekin o'zbek millatiga mansub erkaklar bu masalada vazmin, bosiq xarakter namoyon qiladilar. Chunki bolalikdan er kishilarga oilani mustahkamlash lozimligi va bu vazifa erkak kishining burchi ekanligi, behudaga uni buzmaslik, vazmin bo'lish kerakligi uqtiriladi. Mana shunday vaziyatlar erkaklar xarakterining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. *Og'ir bo'lmoq, keng bo'lmoq, keng fe'l* kabi frazemalar shu xususiyatni yaqqol aks ettiradi. O'zbek xalqi duolarida ham "keng fe'l, ketmas davlat" so'raladi.

Shu o'rinda milliy xarakterning gender farqlari kuzatiladi. O'zbek erkaklari odatda og'ir, vazmin, kamgap; ayollar esa nisbatan xushchaqchaq, sergap, qiziquvchan tabiatli bo'ladilar. Er kishi oilaga xos gaplarni sir saqlaydigan, uni birovga aytishni or biladigan xarakterga ega bo'lsa, ayollar ichidagini yaqinlari bilan bo'lishadigan fe'lga ega. Shu tariqa *elakka chiqqan ayolning ellik og'iz gapi bor, ich(i) qizidi, ich(i)ni qizitmoq, ichini bo'shatmoq, dardini doston qilmoq, og'z(i) bilan yurmoq, og'z(i) bo'sh* kabi frazemalar shakllangan. Ayollarning sergapligi, dardini o'zgalar bilan bo'lishishga intilishi ularning sabrli xarakteriga ta'sir qilmaydi. O'zbek ayollari o'ta sabrli, ko'nikuvchan, fidoyi, vafodor, uyatchan, andishali, mehnatkash, bolajon, kechirimli, ochiq yuzli va ozodadirlar. Mazkur xarakter quyidagi frazeologik birliklarda aks etadi:

1-jadval.

O'zbek ayollariga xos milliy xarakterning frazemalarda aks etishi

Milliy xususiyatlar	Frazeologik birliklar
sabrli	<i>o'z yog'iga o'zi qovurilmoq, dami ichida, dami ichida qoldi, sabr kosasi to'ldi, toqati toq bo'ldi, bardosh bermoq</i>
andishali	<i>yuziga qaray olmaslik, terisi yupqa, yuzingda ko'zing bormi demay (antiqadriyat)yuz xotir qilmoq, yuzidan o'ta olmaslik, labini tishlamoq, tili bormadi, terisi yupqalik qildi, xijolat tormoq, yuzidan o'ta olmaslik</i>

<i>fidoyi</i>	<i>o'zdan kechmoq, jon fido qilmoq</i>
<i>mehnatkash</i>	<i>oyoq-qo'li yengil</i>
<i>kechirimli</i>	<i>ko'ngl(i) bo'sh, yuz xotir qilmoq</i>
<i>mehribon</i>	<i>ich(i) achidi, ko'ngl(i) bo'sh</i>
<i>ochiq yuzli</i>	<i>ochiq chehra bilan, sodda dil, ochiq ko'ngil – ko'ngl(i) ochiq, ochiq yuz bilan, ochiq yuz, sof dil</i>
<i>ozoda</i>	<i>yog' tushsa – yalagudek</i>
<i>tadbirkor</i>	<i>yo'qni yo'ndirmoq</i>
<i>qiziquvchan</i>	<i>ich(i) qizidi, ich(i)ni qizitmoq,</i>
<i>sergap</i>	<i>labi labiga tegmay, labi labiga tegmaydi</i>
<i>ichida gap turmaydigan</i>	<i>yuragini bo'shatmoq, ko'nlini bo'shatmoq, og'zida doston bo'lmoq, dardini dastruxon qilmoq</i>

Biz bu o'rinda mazkur frazemalar faqat ayollarga nisbatan qo'llanadi degan fikhdan yiroqmiz. Bu frazemalar gender farqlanishlarga ega emas. Ammo ko'proq ayollarning milliy xarakterini o'zida ifoda etadi.

Otimni boshqa qo'yaman, og'ir tabiatli, qanoti ostiga olmoq, qoni qaynadi, so'nggi tomchi qoni qolguncha, so'z bermoq, bel bog'lamoq, belida belbog'i bor, ro'zg'or tebratmoq kabi frazemalar orqali esa erkak kishilarning jur'atli, qat'iyatli, oriyatli, bir o'rinda vazmin, bir o'rinda esa qiziqqon tabiati aks etgan.

XULOSALAR

Umuman olganda muayyan bir xususiyat barcha millat vakillarida uchrovchi milliy xarakter darajasiga ko'tarilar ekan, bu jarayon juda uzoq davrni talab qiladi. Mana shunday asrlar osha shaklangan milliy fe'l-atvor albatta millatning qadim madaniyatidan darak beruvchi frazemalarda o'z aksini topadi. Bunda millatga xos bo'lgan milliy xarakter ijobiy semantikali, aksincha, shu xarakterga ega emaslik esa salbiy semantikali birliklar bilan ifoda qilinadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek frazeologizmlarini chuqur tadqiq etish xalq ongidagi axloqiy-estetik qadriyatlarni, milliy mentalitetni va madaniy tafakkurni yanada yaxshiroq anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маслова, В. А. (2011). Национальный характер сквозь призму языка: монография. Витебск: ВГУ имени П.М. Машерова.
2. Nurmuhammedov, Y. (2021). Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari. Samarqand.
3. Mamatov, A. (2020). Zamonaviy lingvistika (pp. 138–139). Toshkent: Tafakkur avlodi.
4. Усмонова, Ш. Р. (1998). Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар (Филол. фан. номз. дисс.). Тошкент.
5. Усманов, Ф. 2024. Қадрият – аксиолингвистика ва лингвомаданиятшунослик призмасида. Хорийй лингвистика ва лингводидактика. 2, 6 (Nov. 2024), 210–216. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp210-216>.
6. Маслова, В. А., & Усманов, Ф. Ф. (2023). Взаимодействие культуры и языка в гуманитарных исследованиях. URL: <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2023/12/maslova-v.-usmonov-f.-literature-and-culture-5.pdf>.
7. Абдуллаев, Ш. Д. (2006). Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т. Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида) (Филол. фан. номз. дисс.). Тошкент.

8. Халикова, М. (1999). Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине мира (на материале русского и узбекского языков) (Автореферат дисс. канд. филол. наук.). Ташкент.
9. Усманов, Ф. Ф. (2024). Ассоциативный анализ ценности оила – семья на фоне русского языка. URL: <https://uza.uz/posts/605837>.
10. Qurbonova, G. S. (2019). Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari (Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori dis. avtoref.). Toshkent.
11. Nasirov, A. A. (2016). Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari (Filol. fanlari doktori dis. avtoref.). Toshkent.
12. Radjabova, M. A. (2020). Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolari (ingliz, o'zbek va rus tillari materialida) (Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori dis. avtoref.). Buxoro.
13. Nishonov, P., & Primova, M. (2023). Fransuz va o'zbek tillarida xarakter ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili. O'zbekistonda xorijiy tillar, 1(48), 76–91.
14. Rahimova, M., & Muhammadqodirova, F. (2022, March 15). O'zbek tilida milliy xarakter bilan bog'liq iboralarning lingvokulturologik tadqiqi. Jamiyat va innovatsiyalar, pp. 413–415.
15. Sputnik News Uzbekistan. (2023, September 15). Iboralar. Retrieved from <https://sputniknews.uz/20230915/iboralar-38860833.html>
16. Usmanov, F. F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti. 2024. URL: <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10001253/4jDnAqp39sMyEMc.pdf>